

**TURKISTON VILOYATI IQON SHEVASIDAGI QARINDOSHLIK TERMINLARINING
LINGVISTIK TAHLILI**

Ubaydullayev Alisher Abdusalomovich

Dotsent.

a.ubaydullayev@nuu.uz

Sultonova Sarvinoz Vohidjon qizi

Jumabek Axmetuli Tashenov

Mizo Ulug'bek nomidagi O'zMU nomidagi universitet 2 - kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18490584>

Annotatsiya. Qozog'istonning Turkiston viloyatidagi Iqon shevasida faol qo'llanuvchi ayrim qarindoshlik atamaları adabiy tildagi va mavjud shevalardagi so'zlar bilan qiyoslanib, tahlilga tortilgan hamda bu to'g'rida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, mazkur dialektidagi leksik birliklar M.Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", hududiy til hodisasi sifatida tahlil qilinib, atamalarning tarixiy taraqqiyoti, hamda va hozirgi o'zbek adabiy tili bilan qiyoslangan.

Misolllar tahlilida taqqoslash, qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvistik usullardan samarali foydalangan.

Kalit so'zlar: Iqon shevasi, dialektologiya, qarluq, qirchoq-o'g'uz lahjasi, leksik xususiyatlar, so'zlashuv nutqi.

**LINGUISTIC ANALYSIS OF KINSHIP TERMS IN THE IQON DIALECT OF THE
TURKISTAN REGION**

Abstract. This article examines certain kinship terms actively used in the Iqon dialect of the Turkistan region of the Republic of Kazakhstan, comparing them with lexical units of the literary language and other existing dialects. Based on the analysis, relevant scholarly observations and conclusions are presented. In addition, the lexical units of this dialect are analyzed as a regional linguistic phenomenon in comparison with the data from Mahmud al-Kashgari's "Devoni lug'otit turk". The historical development of the terms is explored, along with their correlation with the modern Uzbek literary language. In the analysis of examples, a range of linguistic methods — such as comparative, contrastive, and comparative-historical approaches — are effectively employed.

Keywords: Iqon dialect, dialectology, Karluk group, Kipchak–Oghuz dialect, lexical features, colloquial speech.

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ РОДСТВА В ИКОНСКОМ ГОВОРЕ
ТУРКЕСТАНСКОЙ ОБЛАСТИ**

Аннотация. В статье проводится анализ некоторых терминов родства, активно употребляемых в иконском говоре Туркестанской области Республики Казахстан, в сопоставлении с лексическими единицами литературного языка и существующих диалектов.

По результатам анализа высказываются соответствующие научные выводы и суждения. Кроме того, лексические единицы данного диалекта рассматриваются в сопоставлении с материалами труда М. Каишгари «Девону луготит турк» как региональное языковое явление; анализируется историческое развитие терминов, а также их соотношение с современным узбекским литературным языком.

В процессе анализа примеров эффективно использованы такие лингвистические методы, как сравнительный, сопоставительный и сравнительно-исторический.

Ключевые слова: *иконский говор, диалектология, карлукская группа, кыпчакско-огузский диалект, лексические особенности, разговорная речь.*

Shevalarga oid soʻzlarni toʻplash, chuqur oʻrganish, lisoniy-tarixiy jihatdan tavsiflash til va xalqning murakkab tarixini tadqiq etishda muhim omillardan biridir. Oʻzbek tili leksikasini sheva soʻzlari bilan boyitish masalasiga jiddiy ahamiyat qaratish zarur. Prof. S.Ashirboyevning taʼkidlashlaricha, shevalar toʻxtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarning doimiy ravishda nazariy jihatdan oʻrganib borishni taqozo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini keltirib chiqaradi [S.Ashirboyev, 2021: 8]. Oʻzbek sheva va lahjalarini oʻrganish hamisha dolzarb hayotiy ehtiyoj hamda zaruratni hosil qiladi. Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari va ularning tavsifiga bagʻishlangan bir qator ilmiy ishlar, monografiyalar va ayrim maqolalar eʼlon qilingan.

Tilimizning boyib borishi uchun jiddiy manbalardan biri xalq tili – shevalardir.

Tilimiz turkiy tillar ichida koʻp lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. Oʻzbek shevalarining leksikasini oʻrganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Xususan, oʻzbek tili qarluq, qipchoq va oʻgʻuz lahjalariga mansub shakllarga ega boʻlib, Iqon shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga koʻra sezilarli darajada farq qiladi.

Oʻzbek tilshunosligida leksikologiyaga oid koʻplab tadqiqot ishlari mavjud boʻlib, ularda oʻzbek tili leksikasi sistem metodi yordamida tahlil qilinadi. Bunday ishlar sirasiga Sh.Rahmatullayev, I.Qoʻchqortoyev, H.Neʼmatov, E.Begmatov, R.Rasulov, R.Safarova, Sh.Iskandarova, D.Nabiyeva va boshqalarning tadqiqotlari kiradi va shulardan biz uchun eng ahamiyatlisi H.Neʼmatov va R.Rasulovlarning “Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” darsligidir [Neʼmatov H., Rasulov R., 1995:128].

Zero, jonli shevalar yozma adabiy manbalarda, shuningdek, hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham uchramaydigan koʻplab soʻz va iboralar, baʼzi grammatik shakllarni saqlab qolganlarki, ularni izsiz yoʻqolib ketmasligi uchun harakat qilmogʻimiz lozim. Chunki ularni asosli ravishda ilmiy tahlil qilish tilimizda juda ham muhim lisoniy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Ona tilimizning uzoq moziydagi shakl-u shamoyilini tasavvur qilishda tadqiqotchilarga bebaho ashyoviy dalillar beradi.

Oʻzbek oʻgʻuz lahjasi vakillari Xorazm viloyati, Qoraqalpogʻiston Respublikasining Ellikqalʼa va Toʻrtkoʻl tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Qorakoʻl tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozogʻistonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent qishloqlarida istiqomat qiladilar. Biz ushbu maqolada turkiy tillarning oʻgʻuz guruhiga kiruvchi Iqon shevasidagi baʼzi qarindoshlik atamaları haqida fikr bildirmoqchimiz.

Oʻzbek xalq shevalarini oʻrganish dastlab rus tilshunoslari tomonidan boshlab berilgan. Bu borada rus tilshunoslari Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.Q.Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlarning xizmatlari katta. Ular tomonidan oʻtkazilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar oʻzbek dialektologiyasining lingvistik fan sifatida shakllanishiga turtki boʻldi. Jumladan, Y.D.Polivanov oʻzbek shevalarini oʻrganishni XX asrning 20-yillaridan boshlaydi. Shuningdek, bu davrda K.K.Yudaxinning “Qorabuloq shevasining baʼzi bir xususiyatlari” (1925), “Vodiy

qishlog'ining lahjasi haqida bir necha so'z", "Chig'atoy tili tovush sostaviga doir materiallar" kabi asarlari, V.V.Reshetovning "O'zbek tilining Marg'ilon shevasi", "O'zbek tilining Namangan Shevasi", "Transkripsiya haqida" kabi bir qator asarlari nashr qilingan.

O'zbek dialektlarini o'rganish sohasida 1920-1937-yillar oralig'ida prof. Y.D.Polivanov tomonidan ham juda ko'p ishlar amalga oshirilgan. Olim Toshkent, Samarqand, Xorazm, Qarshi, Turkiston va boshqa bir qator joylarni piyoda kezib, o'zbek shevalari haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi, hamda o'zbek dialektologiyasiga bag'ishlab 250 dan ortiq asarlar va ilmiy ishlar yaratadi. Ma'lumki, o'zbek shevalari Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, S.Zufarov, Q.Muhammadjonov, F.Abdullayev, A.Yo'ldoshev, K.Nazarov, M.Begaliyev, S.Nurullayeva, Z.Xolmedovalar tomonidan o'rganilgan.

Ilmiy adabiyotlarda o'zbek tili turkiy tillarning qarluq, qipchoq va o'g'uz etnik guruhlariga asosida tashkil topganligi ta'kidlanadi. Ushbu tarkibda o'g'uz lahjasining Markaziy Osiyodagi areali o'ziga xos bo'lib, hozirgi Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston hududlarida amal qiladi. Shu jumladan, o'zbek tilining o'g'uz lahjasiga oid shevalar hozirgi Qozog'iston Respublikasining Qarnoq, Iqon, Ibota, Qorabuloq, Qizilqishloq, Mankent, Oqsuv, Qoramurt aholi punktlarida ham tarqalgan [Z.Xidiraliyeva, 2023: 7].

O'zbek tilidagi qarindosh-urug'chilik so'zlari haqida M.Narziyeva, A.Ishayev kabi olimlarning bir qancha ilmiy maqolalari nashr qilingan. M.Narziyeva maqolasida qarindosh urug'chilik so'zlarining komponent tahlili haqida to'xtaladi va so'zlarning semantik jihatdan tahlil qiladi. A.Ishayev esa qarindoshlik terminlarining tarixiy va hozirgi ko'rinishlarda o'zgarish bor-yo'qligi haqida ma'lumot beradi. Ma'lumki, boshqa so'z turkumlari qatori qarindoshlik terminlari ham tilning ichki va tashqi rivojlanishi qonuniyatlari asosida ayrimlari unitilib, yo'qolib ketadi.

Lekin ularning asosiy qismi asrlar davomida avloddan avlodga o'tib saqlanib qoladi.

Masalan, olimlarning aniqlashlaricha O'rxun-Enasoy yodnomalarida qayd etilgan so'zlardan 40% ga yaqin (bulardan ayrimlari fonetik o'zgarishlarga uchragan holda) hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida mavjud ekan. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari tilida qarindoshlik bildiruvchi *ota, ada, ana, aba, aka, acha, o'g'il, qiz, aka, singil, ini, chaluk, er, katuk, kelin, yigit, qarindosh* singari terminlar hozirgi turkiy tillar va ularning shevalarida aktiv so'z sifatida qo'llanmoqda [M.Saidova, 2021: 12]. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning "Devon"idagi qarindoshlik terminlarining beshdan to'rt qismi o'zbek tili va shevalarida qariyb hech qanday o'zgarishsiz saqlanib qolgan [A.Ishayev, 1973: 34].

Shevalar adabiy tilga zid hodisa emas, aksincha, uning boyishiga xizmat qiluvchi muhim manbadir. Shu bois o'zbek tilshunosligida shevalarni o'rganish ilmiy ahamiyatga ega. **Iqon** — tarixiy-geografik nom bo'lib, Qozog'istonning Turkiston viloyatidagi qadimiy qishloq nomi bilan bog'liq. Iqon-qorabuloq shevasi — turkiy tillarning o'g'uz guruhiga kiradi, o'zbek tilining dialekti hisoblanadi. Hududda yashovchi o'zbek aholisi asrlar davomida o'ziga xos til xususiyatlarini saqlab kelgan. Iqon shevasida bugun faol qo'llanishda bo'lgan qarindoshlikni bildiruvchi leksemalar o'ziga xos jihati bilan ajralib turadi. Quyida shevaga xos ayrim so'zlarni keltirib o'tamiz:

OTA. Iqon shevalarida ota termini o'zbek adabiy tili va uning shevalarida bo'lganidek, boshqa turkiy tillarda ham keng qo'llanuvchi ota terminidan anglatgan ma'nosi farq qilmagan holda, fonetik farqi bilan ajralib turadi.

Hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida bosh unli ham so'nggi unli ham qadimgi turkiy (a) bilan *ata* deb talaffuz etiladi. Oltoy, xakas, tuva tillarida esa [t/d] jaranglashgan *ada* varianti bilan ishlatiladi. Qadimgi turkiy talaffuz variantini saqlagan turkiy tillarda *ata* termini yozma yodgorliklarda qayt qilingan *ata* termini bilan ham fonetik, ham semantik jihatdan mos keladi.

Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning "Devon" ida *ata* va jaranglashgan *ada* varianti ishlatiladi. Iqon shevasida uning *dada*, *ada* shakli ishlatiladi.

ONA. Turkiy tillar qarindoshlik sistemasida umuman o'zbek tili va uning shevalarida *ona* termini *ana* ma'nosida keng qo'llaniladi. *Ana* termini fonetik qurilishi va anglatgan ma'nosiga ko'ra qadimgi yozma yodgorliklarda qayd qilingan *ana* terminiga mos keladi. Lekin, turkiy tillar va uning sheva xususiyatlariga ko'ra, uning turli xil variantlari yuzaga kelgan. Oltoy, Qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, tuva tillarida *ene*; Volga bo'yi turklari tillarida *eni*, *enne*, *enkey*, *inyee*, *eney*, *anna*; xakas yoqut tillarida; *ine*, *iney* va *iye* kabi variantlar amal qiladi. Ona terminining etimologiyasi va genezisi haqida turli fikrlar bayon qilingan. S.V.Sevortyan ana terminining 8 xil ma'no anglatib, ana ma'nosini ifodalashi asosiy rol o'ynaydi, - deydi. Mazkur shevada uning *oyi* va *oya* shakli faol ishlatiladi.

AKA. Aka leksemasi o'zbek va turkiy tillarda qon-qarindoshlik bildiruvchi termin sifatida qo'llaniladi. Bir ota onadan tug'ilgan yosh jihatdan o'zidan katta erkak kishiga nisbatan, o'zidan kichik singillari ukalari tomonidan aka termini qo'llaniladi. Turkiy tillarda *aka* terminini varianti sifatida *og'a*, *birodar* terminlari qo'llansa-da, o'zbek tilida faqat aka shaklida qo'llaniladi.

O'rganilayotgan shevada ham *aka* shaklida qo'llaniladi.

UKA. O'zbek tilida o'zidan kichik erkak kishilarga nisbatan uka termini qo'llanib, uning turkiy tillardagi varianti *ini*. O'zbeklarda qayin uka, qayin ini, kabi giponimlar ham mavjud. Iqon shevasida ham *uka*, *ini* tarzida faol qo'llaniladi.

OPA. O'zbek tilining ayrim shevalarda *opa* giponimining *apa*, *aya*, *opcha* kabi variantlari mavjud bo'lib, ular anglatgan ma'no opaning leksik ma'nosiga to'g'ri keladi. Ushbu leksema ba'zi qipchoq dialektlari uchun *ona* o'rnida ham qo'llaniladi. Iqon shevasida esa *aytu* tarzida ishlatiladi.

SINGIL. Singil so'zi qon-qarindoshlik atamasi sifatida o'zbek va turkiy tillarda faol ishlatiladi. Singil termini opa terminiga nisbatan antonimik munosabatda bo'ladi. Iqon shevasida esa *singil* ishlatiladi.

TOG'A. O'zbek dabiylari tili va uning shevalarida *tog'a* qarindoshlik termini, barcha turkiy tillarda bo'lganidek, anglatgan ma'nosiga ko'ra barqaror hisoblanib, onaning aka va ukasini ifodalash uchun ishlatiladi. Iqon shevasida *tag'a* tarzida fonetik o'zgarish bilan faol ishlatiladi.

XOLA. O'zbek tili va uning shevalarida *xola* qarindoshlik termini, barcha turkiy tillarda bo'lganidek, anglatgan ma'nosiga ko'ra barqaror hisoblanib, onaning opa va singlisini bildiradi.

Iqon shevasida *xala* ko'rinishida fonetik o'zgarish bilan ishlatiladi.

KELIN OYI termini o'zbek tili uchun umumiy hodisa. Turkiy tillarning barchasida *kelin* // *gelin* shaklida ishlatiladi. Kelin terminining genezisi haqida olimlar deyarli bir fikrga kelishgan. Mazkur termin fe'l o'zagi *ke* / *kelmoq* fe'lga, fe'l va ot yasovchi - *in*, - *un* affikslarining qo'shilishi orqali kelgan, oilaga qo'shilgan, *kelgindi* ma'nosini anglatadi. Mazkur atama Iqon shevasida *kennoya* ko'rinishida fonetik o'zgarish bilan ishlatiladi.

POCHCHA. O'zbek tili va uning shevalarida mazkur termin pochcha shaklida keng qo'llaniladi.

Lekin o'zbek shevalarida uning **yezda, jezda** sinonimlari ham amal qilib, har ikki variantda o'zidan katta opalari xola va ammalarining turmush o'rtog'i ma'nosini anglatadi. Iqon shevalarida **yezna** varianti mavjud bo'lib, aynan opaning turmush o'rtog'i ma'nosini ifodalaydi.

BUVI. O'zbek tilida **buvi** so'zi qon-qarindoshlik termini sifatida nevarasi tomonidan aytiladigan, otaning onasi ma'nosini ifodalab keluvchi so'zdir. O'zbek adabiy tilida **buvi** varianti qabul qilingan bo'lib, shevalarda yuqorida keltirilgan *ena, acha, ona, katta buvi* kabi ko'rinishlari mavjud. Mazkur atama o'rganilayotgan shevada **opa** (otaning onasi) varianti qo'llaniladi.

BUVA. Qon-qarindoshlik termini sifatida nevarasi tomonidan aytiladigan, otaning otasi tushunchasini ifodalab keluvchi so'zdir. O'zbek tilida bu ma'noni ifodalash uchun bir necha variantlar mavjud. Buva, bobo, katta, opoqi, opoq dada, katta dada, katta ota kabilar. Mazkur atama o'rganilayotgan shevada **boba** (otaning onasi) ko'rinishida faol qo'llaniladi.

Qarindoshlik terminlarining yaratilish tarixi insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat, oila, qarindosh-urug'chilik orasidagi real munosabatlarni ifodalaydi. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, o'rtada uzoq muddat o'tgan bo'lishiga qaramay qiyosiy tahlilga tortilgan so'zlarning aksariyati bugun o'zbek adabiy tili hamda mavjud shevalarimizda faol ishlatilib kelinmoqda.

Ushbu leksemalarning ba'zilar ma'no o'zgarishiga uchragan bo'lsa, ayrimlari fonetik o'zgarishlar bilan hozirgi adabiy tilda istifoda qilinmoqda. Bu esa, tilimiz, shevalarimiz va xalqimizning tarixiga borib tutashadi. Fonetik va leksik jihatdan o'ziga xos bo'lgan Iqon shevasi mavjud o'zbek shevalaridan birmuncha farq qiladi. Bu esa monografik tadqiqotlar uchun zarur manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Ashirboyev. O'zbek dialektologiyasi. –Toshkent. 2021. -B. 8.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 s.
3. Z.Xidiraliyeva. O'zbek tilining Iqon shevasi. Fil.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2023-yil.
4. M.Saidova. O'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik xususiyatlari (monografiya). –Toshkent, 2021-yil.
5. I.A.Ishayev. Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari o'zgarganmi? O'TA, 1973, № 6. 34-bet.
6. Б.Абдушукуров. “Девону луғотит турк” ва ўзбек тили шевалари. “O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan),- Toshkent, ToshDO'TAU, 2021-yil, 22-may.180-bet.
7. Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН, 1960-1963.
8. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.